

## BOLALARGA INGILIZ TILINI O'RGATISHDA METODIK USULLAR VA ULARNING AHAMIYATI

*Ilmiy rahbar: NDPI xorijiy tillar fakulteti  
o'qituvchisi M.T.Gapparova  
4-kurs talabasi O.R.Odilova*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalarga chet tilini o'rgatishning ahamiyati, maktabgacha ta'limda ingiliz tili o'rganuvchi bolalar uchun metodik usullardan foydalanish to'g'risida fikr yuritiladi.

**Tayanch tushunchalar:** chet tili, maktabgacha ta'lim, ko'rgazmali quollar, mustahkamlash usullari.

**Abstract:** This article discusses the importance of teaching children a foreign language, the use of methodological methods for children learning English from preschool education.

**Key word:** foreign language, preschool education, visual aids, strengthening methods.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается важность обучения детей иностранному языку, использования методических приемов изучения детьми английского языка с дошкольного образования.

**Ключевые слова:** иностранный язык, дошкольное образование, наглядные пособия, методы укрепления.

Mamlakatimizda ta'limga bo'lган e'tibor yuksak darajada deya e'tirof etishimiz mumkin. Bugungi kunda chet tiliga bo'lган talab ortib bormoqda. Insonlarning qiziqishlari, turli maqsad va vazifalari yo'lida ha chet tilining o'rmini beqiyos hisoblamoqda. Shu jumladan, chet tili maktabgacha ta'limda ham e'tirofga sazovorli ravishda o'rgatilib kelinmoqda.

Muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning PQ-1875-son 2012-yil 10-dekabrdagi „, chet tillarini organish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi qaroridan so'ng ta'limga e'tibor yanada kuchaydi [1]. Qonunga muvofiq zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda uquvchilarga chet tilini o'rgatish, (bugungi kunda nemis tili fransuz tili, kares va xitoy tili, arab tili, vaboshqalar) xususan, ingliz tilini maktabgacha ta'limdan 1-sinfga tayyorlash, 1-sinfdan 9-sinfga qadar ingliz, rus arab nemis va fransuz tillari mukammal ravishda o'rgatilib kelinmoqda. Maktabgacha ta'limda va 1- sinflarga turli xildagi o'yinlar, vedio va ko'rgazmali quollardan foydalangan holda chet tilini og'izaki ravishda o'rgatiyapdi. 2-sinfdan bosqichma-bosqich alifbo, yozish hamda o'qish, chet tili gramatikasini o'rgatilishi aytib o'tilgan.

Maktabgacha yoshda bo'lgan bolaning yoshi bilan birgalikda aqlan va til sezgirligi juda kuchli bo'ladi. Bunday davirda psixologlar bolalar bilan prafessional ustozlar shug'ullanishini tavsiya etadilar. Chunki bu yoshdagi bolaga aytilgan har bir so'z uning xotirasiga o'chamas bo'lib muxirlanadi. Bola hech bir narsani o'z-o'zidan o'rganmaydi. Har bir o'rgatilayotgan narsa uning qiziqishlari, maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda tushuntirilishi lozim.

Turli xil kuzatishlarimiz natijasi shuni ko'rsatadi-ki, bolaga chet tilini o'rgatish, bu tilga qiziqishini oshirish maqsadida turli usullar yordamida ruhlantirish va rag'batlantirish samarali metod sifatida qo'llanilib kelinmoqda.

Bolaga, avallo, yangi so'z o'rgatar ekanmiz so'zga doir rasmlar va boshqa ko'rgazmali qurollardan foydalanishimiz kerak. Chunki bu bolaning o'rgangan yangi so'zini tez va oson yodida qolishini taminlaydi. O'rgatilgan yangi so'zni yana mustahkamlash maqsadida mavzuga doir qo'shiqlar va o'yinlar qo'l keladi.

Maktabgacha yoshdagi (4-5) bolalarga turli mavzularda ,asosan, „my body”, „fruits and vegetables”, „my hause” , „domestic and wild animals” va boshqa mavzularga doir so'zlar o'rgatiladi. O'z kuzatishlarim natijasida bolalarga biror mavzudagi so'zlarni o'gatish uchun , masalan: „my body” mavzusidagi so'zlarni avvalo, uzbek tilida aytib ko'rsatilib so'ngra ingliz tilida qanday aytishi bilan talafuz qilindi. Misol uchun: head-bosh, hair-soch, ear-qulqoq, nouse-burun, mouth-og'iz kabi so'zlarni qayta takrorlash yordamida o'rgatish sungra, „ CoComelone Nursery Rhymes& Kids”ning „my body song” qushig'I orqali mavzu mustahkamlandi. Bolalar zerikib qolmasliklari uchun kichik gruhlar tuzilib „Hot Potato” o'yini orqali aytilgan tana a'zosi ko'rsatildi. Shu tariqa sekinlik bilan mavzularini murakkablashtirib boorish lozim. 6-7 yoshli bolalar ingliz tilini o'rganishda ma'nosini anglamay mexanik tarzda yod oladi. Shu sababli ularga gramatik mavzulardan darslar tushuntirilmasligi kerak. Sabibibolatez zerikishiga olib keladi.

Xalqimizda „Til bilgan el biladi”–degan maqollar bejiz emas. Inson qancha til o'rgansa shuncha undagi dunyoqarashi rivojlanadi, sababi til orqali turli mamlaktlar dini, madaniyati, urf-odatlaridan xabardor bo'ladi [2]. Til ijtimoiy hodisa hisobladi. Bola inliz tilini o'rganib uning kommunikativ kompetentsiya asoslari rivojlanadi. Turli qiziqarli mashg'ulotlat bilan o'rganib uning fonetik jihatdan tug'ri talafuz qilishieshitish va takrorlash qobiliyati rivojlanadi.Ingliz tilida so'z boyligi oshadi,sodda gramatik tuzilmalarni tez va ososn o'zlashtiradi. Biz yashayotgan zamon kundan-kunga o'sib rivojlanib bormoqda. Bizning asrimizda nafaqat maktabgacha yoki maktab uquvchilariga balki, har bir soha vakillri uchun chet tilini bilish muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bunga yaqqol misol qilib prezidentimiznin 2018-yil 1-yanvardagi qarorini ko'rsatishimiz mumkin. Qarorda „xalqaro yoki milliy sertifikatga ega har bir kasb egalariga qushimcha ustama pullari berish” to'g'risida aytilgan. Shuningdek,2017-2018 o'quv yilidan boshlab uzliksiz t'lim tizimida chet tilini

o'zlashtirish darajasini davlat ta'lif standartlarida belgilangan „Tinglab tushunish”(Listening), „O'qish”(Reading), „Yozish”(Writing), „Gapirish”(speaking)[3] ko'nikmalari asosida baholab boorish mexanizimi ishlab chiqilishi ham aytib o'tilgan [3]. Chet tillari o'qitish metodikasining atoqli vakillaridan biri Garvard universiteti professori Wilga M.Rivers ta'kidlaganidek-, „savodli bo'lish – o'qish va yozishni bilish, degan ma'noni anglatadi”[4]. Albatta inson savodli bo'lishining eng birinchi qadami o'qish va yozishni o'rganishidir. Qancha ko'p o'qigan inson kamolotga yetishadi. Kamolotga yetish, komil inson bo'lish uchun nafaqt o'qish, balki, „uqish” kerakdir. Farzandlarimizni qancha tez kamolotga erishishini istasak shuncha yoshligidan bilib tarbiya berib borishimiz lozim. „Yoshlikda olingan bilim toshga uyib yozilgan naqsh” deya bejiz aytishmagan xalqimiz.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, chet tillarini o'rgatish murakkabligi bilan bir qatorda murakkat jarayondir. Darslarni tug'ri talqin qilib bolaga yetarli malumotlarni qiziqarli va tushunarli tarzda tushuntirilib, sodda mavzular murakkablashib gramatik mavzular o'tilishi bilan bolada zerikish o'rniga kuchli intelektual qiziqish va izlanishlar yuzaga kela boshlaydi. Til o'rgatishning eng samarali usuli albatta o'z ona tilisi bilan taqqoslagan holda tushuntirish hisoblanadi. O'tilgan mavzularni yodidan chiqarmaslig uchun esa albatta, mashqlar bajarilishi lozimdir. Chunki har bir bajarilgan mashq o'tilgan mavzuni bolaning yodida qolishini ta'minlovchi eng samarali usuldir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning PQ-1875-son 10.12.2012 qarori.
2. „O'zbek Xalq Maqollari” tuplamidan.
3. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil 32-sun 820-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.05.2019-y.
4. Wilga M.Rivers „Teaching Foreign- Language Skills”2<sup>nd</sup> –Chicago and London: The university of Chicago Press, 1981,p291.